

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2022-11/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2022

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Тахрир ҳайати:

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.</i>	<i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаев Рашидан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.</i>
<i>Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рўзибоев Рашид Юсуфович, тиб.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нағмет Қаллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Аметов Яқуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Салаев Санъатбек Қомилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сапаров Қаландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Тожибаев Қомилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик</i>
<i>Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердиқулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Қадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Қаримов Улғубек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Бахоридович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Худайберганова Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>
<i>Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№11/4 (95), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 219 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdumalikova D. Leksikologiya va unga umumiy tavsif	5
Abdusamadov Z. Ways of translating phraseological units in simultaneous interpreting	7
Adambayeva N. Xushmuomalalik kategoriyasi maksimalari tadqiqiga aksiolingvistik yondashuv	14
Ahmedova M. “Riyozi-d-davla”da antroponimiyaga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi	17
Ahmedova V.A. Erkin A‘zam dramalarida plastik obraz yaratishning o‘ziga xosligi	21
Allanazarova S.X. O‘zbek badiiy onomastikasidagi mashxur ismlarning kelib chiqish omillarining tahlili	23
Amonova Z.B. Nemis tilida ot so‘z turkumiga oid ijtimoiy-siyosiy neologizmlar tavsifi	25
Aqmanova Sh.A. Biblionimlarning semantik-tipologik xususiyatlari	27
Bazarov S.B. Ramzlarga burkanga hayot voqeligi zahirida inson qismati	30
Bobojonova Sh. Diskurs, ta’limiy diskurs va nutqning tarkibiy qismlari va ularning xususiyatlari ...	33
Bobomurodova Sh.E. O‘zbek xalq maqollarida qo‘llanilgan sonning ifoda imkoniyatlari	35
Do‘smatov H., Qodirova X. Askiya ustalari laqabining Xorazm shevalarida mavjud ko‘rinishlari .	37
Egamberdieva Sh. Psycholinguistic approach to the study of speech impact in advertising texts	39
Egamnazarova Z. Rieltor va broker terminlarining lingvistik xususiyatlari tadqiqi masalasi	42
Erdanova S.A. Modeling issues of “пул”, “деньги” and “money”, concepts in interlingual discourse	44
Hazratqulova O. Kognitologik konseptining tilshunoslikda tutgan o‘rni	46
Jo‘rayev H., Anvarova D. Jahon xalqlari eposida mushtarak va farqli jihatlar	49
Khujamberdieva G. Some comments on toponymic phraseological units in english and uzbek languages	51
Khusanov E.D. English literary language and dialectisms in it	53
Kosimova M.U. The development of uzbek language stylistics	55
Koziyeva I.K. Millatlararo muloqotda o'zbek antroponimlarining o'rni	57
Mamajonova E.M. Theoretical views of uzbek scientists on the use of the term "concept" in contemporary cognitive linguistics	61
Muxtorova M.I. “Qayg‘ularimiz zimistoni” (The winter of our discontent) romanida bosh qahramon talqini	63
No‘monova R., Shodiyeva A. Badiiy matn tahlilining asosiy yo‘nalishlari	65
Qayumov A., Isaqova J. O‘zbek adabiyotida bola obrazi talqini	67
Rashidova F. Charlotta Brontening «O‘qituvchi» asarida erkak va ayol munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari	69
Ruzieva M.H. Interpretation of socio-communicative and lingua-cultural aspects in translator’s thinking	71
Sayitqulova Z.X. Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida qahramonlararo munosabatlarning lingvokulturologik tahlili	73
Suyarova A.I. Sharof Rashidov publistikasining ijtimoiy xayotdagi o‘rni	74
Teshaboeva Z.Q., Begimova M.X. O‘quv metodik terminlarning xorijiy olimlar ishlarida o‘rganilishi	77
Teshaboyeva Z.Q., Xalilova D.J. Tibbiyot sohasining stomatologiya terminlari xususida	82
Toshmatov A. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining chet tilida yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning lingvodidaktik omillari	87
Xaitov X.X. “Alpomish” dostonida qo‘llanilgan dialektal oronimlarning talqin va tahlili	89
Xusanova Z. Badiiy matnda laqablarning qo‘llanilishi haqida	92
Xoliqulova G.Yo. Hindiston turkiy zabon adabiyotini o‘rganishda hasanxoja nisoriy tazkirasining o‘rni va ahamiyati	97
Yadigarova S.B. O‘zbek tilidagi kiyim nomlarining semantik tahlili	100
Yakubov M.K. “Ingliz va o‘zbek dramaturgiyasida amir temur shaxsi talqini” dissertatsiyasi mavzusi haqida ayrim mulohazalar	102
Абдуллаев Х.Б. К вопросу о значении понятий «денотация» и «коннотация»	105
Абдуллаева Р. Особенности перевода медицинских терминов с русского на узбекский язык	107
Азимов У.С. Таржима ва оддий фольклоризм	110
Азимова М.С. Садриддин Салим Бухорий – эссенавис	113
Асатова Г.Р. Характеристика современных экономических терминологических систем	115
Аскарова Ж.Б. Лукмони Ҳаким – ҳикмат эгаси	118
Атаев А. Ўрта асрлар Хоразм арабий забон адабий муҳитидаги айрим ғазаллар хусусида	120
Ахадова С.С. Сравнительно-типологическое исследование юридической терминологии испанского и узбекского языков	124
Ахмедова Г.Ю. Инглизча-ўзбекча ва ўзбекча инглизча икки тили ўқув луғатлари рангларнинг ифодаланиши	126

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduazizov A.A Tilshunoslikka kirish nazariyasi.-T:Sharq,2010.14-bet
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., Советская Энциклопедия, 1968. 607 с.
3. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды Московского института истории, философии и литературы. 1939. Т. V. С. 3-54.
4. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического анализа. М.: Наука, 1977. 246 с.
5. "Glossary of Curriculum Terminology" UNESCO International Bureau of Education, UNESCO-IBE 2013,29-bet.
6. Ilona Huszti, Beregszasz "Glossary on language teaching and learning",2013.
7. J.Jalolov,"Chet tili o'qitish metodikasi" TOSHKENT – 2012, 18-bet.
8. Jack C. Richards,Richard Schmidt "Longman _ Dictionary _ of _ Language _ Teaching _ and _ Applied _ Linguistics", Fourth edition, 2010.
9. Коньшина Ю.И., Верношлова Е.И. Семантическая сеть как средство изучения терминологического слоя лексики монографии Дж. Дьюи «The Child and the Curriculum» Гуманитарные и социальные науки. 2020. № 5. С. 141–154.
10. Колесникова И. Л., Долгина О. А. Англо-русский терминологический справочник по методике преподавания иностранных языков. СПб.: Русско-Балтийский информационный центр «Блиц»; Cambridge University Press, 2001. 224 с.
11. Краевский В.В. Методология педагогического исследования. - Самара: Изд. Сам.ГПИ, 1994.-р. 43, 115.
12. Лебедев Дмитрий Игоревич «Проблемы Адекватности перевода лингводидактических терминов на материале Русского и Английского языков» МОСКВА 2005, р.31,41
13. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. М.: Изд-во АН СССР,1961. 157 с.
14. Niyozova Mohinur - Problems of systematization of pedagogical terms and concepts in the scientific and pedagogical theory of comparable languages /American Journal Of Philological
15. Реформатский А.А. Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии. – М., 1986. – С.8.
16. <http://pedsovet.alledu.ru/files0/files1/files629/files640/docs/48.html>.
17. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/termin/>

UO'K 81-13

TIBBIYOT SOHASINING STOMATOLOGIYA TERMINLARI XUSUSIDA

Z.Q. Teshaboyeva, f.f.d., dots., ToshDO'TAU, Toshkent
D.J. Xalilova, tayanch doktorant, ToshDO'TAU, Toshkent

Annotatsiya. Tibbiyot sohasining stomatologiya yo'nalishi jahon tilshunosligida o'rganilganligi va ta'lim sohasidagi termin birikmalarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadiki, ularni o'rganish universal va noyob tuzilishga ega ekanligini ilmiy-kasbiy tillar holatini saqlab qolish, ularni to'plash, umumlashtirish, jamiyatga va alohida kasbiy guruhlarga xizmat qilishini kognitiv nuqtai-nazardan yondashni talab etadi.

Ushbu maqola til vositalarini tejash qoidalari va nutqning o'sishida o'z aksini topgan bir necha xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan stomatologik terminlar tadqiqiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar. stomatologiya, dentistry, soha, termin, tibbiy, tibbiyot, eponim, qo'llanma, izohli lug'at.

Аннотация. Тот факт, что в мировой лингвистике изучается стоматологическая область медицинской области и специфические характеристики терминосочетаний в области образования, показывает, что их изучение имеет универсальную и уникальную структуру, сохраняющую статус научных и профессиональных языков, чтобы полностью скрыть обобщение, требует когнитивного подхода для обслуживания общества и отдельных профессиональных групп.

Данная статья посвящена изучению изученных рядом зарубежных ученых стоматологических терминов, которые находят свое отражение в правилах сохранения языковых средств и роста речи.

Ключевые слова: стоматология, dentistry, область, термин, медицинский, медицина, эпоним, пособие, толковый словарь.

Abstract. The study of dentistry in medicine shows that it has universal and unique structure in the world linguistics and special features of term structures in education The study requires a cognitive approach to serve society and individual professional groups by making generalization, collecting and maintaining the case of scientific and professional languages.

This article is devoted to the study of dental terms studied by a number of foreign scientists, which are reflected in the rules for the preservation of language means and growth in speech.

Key words: stomatology, dentistry, field, term, medical, medicine, eponym, manual, consise dictionary.

Kirish. Rivojlanish cho'qqisiga chiqqan tibbiyot o'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lib, ushbu sohaga oid terminlarning uzoq o'tmishdan shakllangani va doimiy yuksalishda ekanidan darak beradi. Asosan antik tibbiyotni yunonlar shakllantirishgan. Rim paydo bo'lgandan keyin Yunonistonning madaniy

hayotida tabiiy, ilmiy va tibbiy fanlarning rivoji juda katta rol o'ynagan. Rim olimlarining tibbiyot fani masalalariga bag'ishlangan asrlari paydo bo'la boshlagan. Miloddan avvalgi I asrda esa Korneliy Sels qomusnoma yaratgan va undan "*De medicina*", ya'ni "Meditsina haqida"gi traktining 8 kitobi bizgacha yetib kelgan. Shunday qilib, antik davrdan boshlab terminologiya yunon-lotin tillari asosida shakllana boshlagan.

Ushbu ikki til tibbiy terminologiyaning butun davrlar mobaynida an'anaviy tus olgan holda hozirgi kunda ham davom etmoqda. Bugungi kunda jahon tibbiyot amaliyotlari va muolajalarining keskin rivojlanishi natijasida yangi tibbiyot terminlarining paydo bo'lishiga sabab jahon olimlarining say-harakatlari natijasida ulkan sohaning bir bo'lagi hisoblangan stomatologiya sohasida ham yangidan-yangi tibbiy terminlar haqidagi ilmiy adabiyotlarning ko'pligidir.

Adabiyotlar tahlili. Tibbiyot sohasida Robert Ayland "Stomatolog lug'ati" 2010, Jon F. MacKeyib, Angus W.G.Vols "Tishga oid materiallarning ifodalanishi", Charli M.Dofka "Tish terminologiyasi" 2012, Charli M.Dofka "Tish terminologiyasi" 2000, Peter Krosvayt, Liza Cheyug "Stomatolog tili" 2019, Lippincott Uilyams va Vilkins "Tibbiyot terminologiyasi nihoyatda osonlashdi" 2009, Xizer Batman, Rus Xilmor, Deyzi Jakson, Sara Luznat, Kyet makAdam, Sharlotta Regan "Tibbiyot terminlari lug'ati" (2004) kabi asarlari diqqatga sazavordir.

Tibbiyotning stomatologiya sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan Rossiyalik olimlardan Yulya Plotskayaning (2020) "*Структурно-семантические особенности немецкой стоматологической терминологии*" "Nemis tili stomatologiya terminologiyasining struktur-semantik xususiyatlari" mavzusidagi ishi va Rusakova Mavjida Munirovnaning (2017) "*Лексико-семантические поля терминосистемы "Стоматология/Dentistry" в сравнительно-сопоставительном аспекте (на материале профессиональных медицинских дискурсов русского и английского языков)*" mavzusidagi ilmiy ishi stomatologik terminlarning o'rni, vazifalari, kelib chiqishi va foydalanishi haqida asosli xulosalarni keltirib o'tishgan.

Rusakova Mavjida Munirovnaning rus va ingliz tili terminologiya materiallari tahlilida stomatologiya terminlarining universal va noyob tuzilishga ega ekanligi va ta'lim sohasida terminlarning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi xulosalar orqali ochib berishga harakat qilgan. Bunda: "milliy tillar sistemasi xususiyatiga ega quyi sistemasiga kiritilgan ilmiy-kasbiy tillar holatini saqlab qolish, ular axborotni umumlashtirish, to'plash, uzatish, ma'lumotlarni saqlash, jamiyatga va alohida kasbiy guruhlariga xizmat qiladigan jihatlarni ochgan. Bunda umumiy kognitiv hodisalarni, til vositalarini tejash qoidalari va nutqning o'sishida o'z aksini ifodalashni amalga oshirish" [Русакова М. М. 2017, 141] muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tgan. Rossiyalik olim Yu.V.Plotskaya esa "Nemis tili stomatologiya terminologiyasining struktur-semantik xususiyatlari" mavzusidagi tadqiqot ishida bugungu kundagi "terminologiyaning semantik dolzarbligicha qolmoqda, chunki oddiy so'zni terminga aylantirish va terminologik sistemada qo'llash imkonini beradi va terminologiyaning eng samarali usullaridan biri metafora" ekanligini, "antropomorfik metafora modelini ham aniqlagan. U inson qiyofasi va uni urab turuvchi muhit, tana a'zolari, ovqatlanishi, insonning mehnat qurollari inson kasbi ham metaforalashgan terminlarning shakllanishiga xizmat qilishini, antropomorfik lingvistika nemis tili stomatologiya terminologiyasiga metaforalashtirish orqali ta'sir qiladi va metafora orqali tarqalish esa kognitiv jarayon hisoblanib, professional lingvistik dunyoni shakllantiradi" [Плюцкая Ю. В. 2020, 123] degan xulosani keltirib o'tgan.

M.Rusakova olib borgan tadqiqotida esa "Terminologiya sohasi stomatologiya va dentistry sistemasi tarkibini to'ldirish va kengaytirish uchun universal xususiyatlari boshqa tillardan va sistemalararo o'zlashgan, qayta ishlangan terminlar bilan birga kirib kelgan turli xildagi so'z yasash jarayonlarining shakllanishini aniqlash va sohasini to'ldirish" [Русакова М. М. 2017, 141] lozimligini va "stomatologik terminlarning ingliz tilidan o'zlashtirilganligini aniq qayd etmagan va tizimli xususiyatga ham ega emas, boshqa tillar, xususan rus tili termin sistemasining *donor-tili* hisoblanadi"- deyidi. Shuningdek ekstralingvistik va intralingvistik faktorlar bilan belgilanishini ta'kidlaydi.

O'z navbatida, ilmiy va professional ingliz metatili [Бүронов Ж.Б. 1973, 35.] (yunon tilida - τὰ μετὰ - "keyin", "orqali", "ma'lum bir til haqida til") yunon va lotin tiliga asoslangan, ammo hozirgi bosqichda terminlarning shakllanishida ustunlik qiluvchi lotin-yunon tili paradigmasida o'zgarishlar mavjud va ko'plab xalqaro stomatologik terminlar ingliz tilidan boshqa, jumladan aloqasi bo'lmagan tillarga o'zlashtirilgan'i ko'rsatib o'tilgan. Yu.V.Plotskaya esa sinonim terminlar va sinonimik terminlar tahlilini olib borganligini va ularni guruhlariga bo'lib chiqqanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. 1. Angloamerika-qadimgi terminlari; 2. Angloamerika-lotin-grek komponentlari bilan o'zlashgan-nemis tili terminologiyasiga ushbu komponent orqali kirib kelgan. 3. Qisqartirilgan angloamerika terminlari-qadimgi qisqargan terminlardir" [Плюцкая Ю.В.2020, 124], degan xulosaga kelganligini va tahlillarga ko'ra terminlarning eng ko'p qismini qadimiy terminlar bilan sinonim bo'la oladigan anglo-amerika terminlari

guruhiga mansubligini, qisqartirilgan terminlar guruhi va yunon-lotin termin elementlari bilan terminlar miqdorining teng ekanligi aytib o'tilgan.

M.M.Rusakovaning fikricha stomatologiyaning *Dentistry* sohasi yuzasidan tadqiqot olib borilganda stomatologiya sohasining farq qilishi, stomatologiya sohasi tadqiqotlari, zamonaviy ingliz tilidan o'zlashtirilganda nomlanish jarayonlari, so'zlarning shakllanishi va semantik so'z yasalihi son jihatdan orqada" [Pysakova M. 2017, 142] ekanligi bilan bir qatorda stomatologiyaning terminologiya sohasidan o'zlashtirilgan so'zlar sababli jadal ravishda to'ldirilayotganini aytib o'tadi. Ko'pincha ingliz tili va nemis tilidan kamroq, rus tilidagi tibbiyot sohasiga o'zlashtirilgan terminlar mikroguruhlarini aniqlangan. Bular esa davolash va diagnostika metodlari, stomatologik materiallar va asboblari, dori-darmon vositalaridir. Biroq, ingliz tili terminologiyasining keng tarqalishiga qaramasdan amaliy nutqda qo'llanishi g'arbiy Evropa tillaridan o'zlashtirilgan terminlar soni tibbiy terminologiyada o'rtachaligicha qolmoqda" [Pysakova M. M.2017, 142].

Erishilgan natijalar. Olib borilgan tadqiqotlardan ayon bo'ladiki, xalqaro xususiyatga ega bo'lgan tibbiyot terminlari yunon-lotin tilidan kelib chiqqanligi bilan ustunlik qilinishini kuzatamiz, shu bilan bir qatorda, lotin-yunon tillaridagi termin va elementlarning kelib chiqishi to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilmagan, balki zamonaviy vositachi tillar orqali o'zlashtirilgan va ekstralingvistik faktorlar ta'siridagi semantik va tarkibiy o'zgarishlar sababli sodir bo'lganligini ko'rsatib o'tgan bo'lsa, Yu.V.Plotskaya sinonimiya nemis tili stomatologiya terminologiyasining leksik tizimidagi qonuniy hodisasidir degan xulosaga kelgan. Sinonimik terminlarning soni ekstralingvistik (boshqa tillardan, asosan lotin va yunon tillaridan) va lingvistik (bir xil tushunchalarni turli konstruksiyalar bilan nomlash) sabablari bilan izohlanishini, shu bilan bir qatorda zamonaviy bosqichda tibbiyot terminologiyasida sinonimiyaning paydo bo'lishining asosiy yo'nalishlaridan biri terminlarning ingliz tilidan o'zlashtirilib, ushbu tilning xalqaro ilmiy til sifatida keng tarqalishi bilan bog'liq" [Плюцкая Ю. В. 2020, 124] ekanligini ko'rsatib o'tgan.

Biz "stomatolog" va "dentist" so'zlaridan sinonim sifatida foydalanamiz ammo stomatologiya so'zi grek tilidan kirib kelgan bo'lib, στόμα "og'iz" + λογος "fan" - tishlar, ularning tuzilishi va vazifasi, tish kasalliklari va uning oldini olish metodlari, davolash, shuningdek, og'iz bo'shlig'i, jag'lar, yuz va bo'yin soha kasalliklari bilan shug'ullanadigan tibbiyot sohasi ekanligini anglaymiz.

Dentist so'zi lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, dens, dentis - "tish" - tushunchalarga ko'ra, stomatologlar va stomatolog yordamchilari, tishlarni davolash va protezlash amaliyotlarini o'z ichiga oladi.

M.M.Rusakova rus tili va ingliz tilida ham turli xil morfologik va semantik so'z yasash usullarining mavjudligini o'z ishida isbotlab bergan. *Dentistry* va stomatologiya sohalarida ham terminshunoslikning o'ziga xos shakllanish usullarini son jihatdan ifodalanishga sabab bo'lishi, *Dentistry* va Stomatologiya sohalarida terminlarning o'z o'rnini muhimligini aniqlaydi. *Dentistry*ga oid terminlar so'z yasash usullarining keng spektrlari bo'lib, ikki so'zni biriktirib qo'shma so'z yasash orqali morfologik-sintaktik usullar, qisqartmalar har xil turlari, ya'ni terminologik iboralarning shakllanishi, transterminologizatsiya, sistemalararo va fanlararo bog'liq ravishda turli fanlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirining rivojlanishi natijasida o'zlashtirilib [Pysakova M. 2017, 142] aytib o'tadi, stomatologiya sohasi terminologiyasini shakllantirish morfologik jihatdan xilma xil va mukammalligini ko'rsatib beradi.

Shuningdek, so'z yasashning morfologik bo'lmagan ammo qisqartma turlari va ifodalanishi son jihatdan bir xil ingliz tilida so'zlashuvchi birliklardan sezilarli ravishda son jihatdan ortda qolishi, stomatologik lug'atlar, maqolalar, o'quv adabiyotlar va monografiyalarni rus va ingliz tillaridagi nashrlarda qisqartmalar miqdorining oshib borishi, ko'p komponentli terminlarni nomlashda murakkab tushunchalardan foydalanilganini va tahlil qilinganligini ko'rsatib beradi" [Pysakova M. 2017, 143]. Kamdan kam uchraydigan terminologik birikmalar har stomatologiya va dentistry sohasining nutqiy o'sishi va til vositalarining tejalish qoidalari orqali amalga oshirilishini ingliz tilidagi murakkab qisqartirilgan terminlar faol shakllanmoqda, shuningdek yaqinda shakllana boshlagan Nanodentistry mikrosferasida ham, termin-iboralar tarkibida uchraydigan nisbiy sifatlar qisqargan holda, xalqaro prefiksoidlar va suffiksoidlar, otlar muntazam ravishda qisqartiriladi [Pysakova M. 2017, 143], - deb ta'kidlaydi.

Stomatologiya sferasining terminologik tarkibida qarama-qarshi hodisalar kuzatiladi: terminlar, yozma matnlardagi nanostomatologiya mikrosferasidagi voqelikni bildiruvchidir, terminlar har doim ham qisqartirilmaydi, termin-iboralar, otlar tarkibidagi nisbiy sifatlar esa qisqarmaydi, termindan terminga aylanadigan, ammo terminlar mikropoliyasi yoki termin guruhlarini uchun giperonimlarni [Caqapova P. 1996, 4.] ifodalamaydi deb ta'kidlaydi M.M.Rusakova.

M.M.Rusakovaning fikricha, har ikkala soha tarkibida ham qisqartmalar faol qo'llanishi va shakllanishini keltiradi, ammo ularning miqdoriy sifati turli xil ifodalanishlari, rus tilida - qisqartmalar bosh harflar va akronimlar ko'p uchrashi, ingliz tilida- keng ko'lamdagi, turli xil ko'rinishda bo'lishi, - bosh

harflar, qisqartirilgan, moslashtirilgan, shuningdek grafiklashgan qisqartmalardan tashkil topgan terminlar mavjud ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Yu.V.Plotskayaning fikricha eponim terminlar va ularning afzalliklari bilan kamchiliklarni keltirganda eponim terminlar professional til dunyo tasvirini shakllantiruvchi komponent hisoblanadi. Eponim terminlar tahlilida, ular eng ko'p sonli olimlar guruhi nomini o'z ichiga olganligini ta'kidlaydi.

Eponim- qadimgi yunon tilidan kirib kelgan bo'lib "ism berish", ya'ni quyidagicha ta'riflangan, nomlanishga asoslangan yoki undan olingan ism dori yoki kasallik sifatida birinchi marta milloddan avvalgi II Ossuriyaliklar tomonidan qayd etilgan bo'lib, tibbiyotda insonlar, ba'zi joylar yoki narsalar nomi bilan ataladigan terminlarni hisoblashgan.

1975 yilda Kanadada Milliy sog'liqni saqlash instituti tomonidan kasalliklar va kasallik holatlarining nomlanishi to'g'risida olib borilgan konferentsiyada terminlar atroflicha muhokama qilingan. Bu haqida The Lancet nashrida shunday xulosa qilingan. "Eponimdan foydalanishda egalik huquqini to'xtatish kerak, chunki muallif na uni buzishga ega emas va na unga egalik qila olishga". Tibbiyot tarixi mohiyatini kashf qila olgan insonlargagina yangi kashfiyotlarni barpo qila oladilar.

Ko'p komponentli terminologik birikmalar keng tarqalgan va ularning tarkibida esa bir nechta komponentlarning mavjudligi bilan bog'liq, terminlarning mazmunan yaxlitligicha tushunishga yordam beradi.

Nomutaxassislar eslab qolishi uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin bo'lgan mualliflarning bir xil nomlardan foydalanishda esa terminologik chalkashliklarning paydo bo'lishiga olib keladi yoki bir xil termin turli mamlakatlarda turlicha nomlanishini [Плюцкая Ю. В. 2020, 124] terminologik sinonimlarning paydo bo'lish kamchilikliklardan biri hisoblanadi.

Yu.V.Plotskaya olib borgan ilmiy ishlarini raqamlarda hisoblab, o'rganilgan materiallari masalan 1232 antonim-termini asosida quyidagi natijaga erishildi: qarama-qarshi antonimlar 23%, kontrantonimlar-27%, to'ldiruvchi (komplementarniy) antonim terminlar-38% va konvertatsiya terminlari-12%" [Плюцкая Ю. В. 2020, 124]ni tashkil etdi. Shunday ko'rinib to'ribdiki, to'ldiruvchi (komplementarniy) antonimlar o'rganilayotgan terminologiyada eng mahsuldor turi hisoblanadi degan xulosaga kelganligini ko'rishimiz mumkin.

O'rganilayotgan terminologiyada omonim-terminlar eng ko'p qisqartiriladigan terminlar bilan ishlatiladi va til vositalarini saqlab qolgan holda umumiy til tendentsiyalariga mos kelishini va stomatolog - mutaxasssing sinonim, antonim, omonim so'zlar ma'nolarini va ko'p ma'no ifodalovchi so'zlarni bilish, professional til dunyosini kengaytiradi va mukammallashtiradi, muloqotning turli darajalariga mos terminlardan foydalanish imkonini beradi.

Tarixdan bizga ma'lumki sivilizatsiya asosan yirik daryolar bo'ylaridan boshlangan. Old Osiyo, Dajla va Frot daryolari bo'ylarida Mesopatamiya tamaddunlari: Shumer-Akkad, Bobil-Ossuriylar ravnaq topdi. Shimoliy Afrikada, Nil qirg'oqlarida Qadimgi Misr madaniyati gullab yashnadi. Xuanxe va Yantszi daryolari hududlarida Qadimgi Xitoy tamadduni, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida Movaraunnahr madaniyati rivojlandi. Arxeolog olimlar tomonidan taqdim etilgan ko'plab ma'lumotlarga ko'ra qadimdan madaniyatimizning rivojlanish bosqichlari shunday fikr yuritishimizga imkon beradi.

Olimlar tomonidan qadimgi madaniyatlarning iqtisodiy va ijtimoiy darajasi o'ziga xos jihatlari, madaniyati va turmush tarzidan tortib, hatto o'sha davrlarda yashagan insonlarning iste'mol qilgan oziq-ovqatlari, o'sha davrga xos bo'lgan kasalliklarga ma'lumotlarni o'zida saqlab qolgan qadimgi yozuvlarda kashf etilgan va ushbu ma'lumotlar qadimgi madaniyatlarda mavjud bo'lgan tish kasalliklarini davolash amaliyotiga oid sohani ajratib olish imkoniyatini beradi.

Lug'atning keng kitobxonlarga mo'ljallanishi uning terminologik hajmini, terminlarning detallanish chegarasini belgilaydi. Lug'atga kasalliklarning nomlari, davolash, diagnostika, epidemiologiya, tibbiy psixologiya, hamshiralik ishiga oid barcha asosiy terminlar lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida izohlangan holda kiritilgan.

Yuqorida keltirilgan lug'at namunalari o'ziga xos ravishda bir-biridan ajaralib turadi. Azimjon Qosimov muallifligi ostidagi to'rt jildidan iborat "Tibbiy terminlar izohli lug'ati" (2003, 2008)da, tibbiyot so'zlari tibbiyotning sohalarga ajratilganligi bilan farqlanadi. Masalan: **Ko'z yarasi- xalq tabobatida** - kuz va uning atrofigachiqadigan har qanday yara va toshmalarning umumiy nomi. **Ko'z qaychi- tibbiy texnikada**- ko'rinishi kichik, damiingichka, ko'z soqqasida operatsiya o'tkazishga mo'ljallangan qaychi. **Ko'z qisish-tibbiyotda**- reflektor ravishda beixtiyor yoki zaruriyat tufayli ixtiyoriy tarzda qovoqlarni o'qin-o'qin qisib qo'yish; bu xodisa deyarli bir vaqtda ikkalako'zda kuzatiladi" [Косимов А.2003, 122].

Usmanxodjaev A.N., Basitxonova I.E., Nazirov P.X., M.S Turaxanovalar muallifligi va professor F.G'.Nazirov tahriri ostidagi ikki jildan iborat "Tibbiy terminlar entsiklopedik lug'ati" [Усманходжаев А.Н., Баситхонова И.Э., Назиров П.Х., Тураханова М.С.,2010] kirill, rus va lotin tilida o'qishni afzal

ko'radiganlar uchun mo'ljallangan bo'lib har bir tibbiyot so'ziga kirill va lotin tillarida izohlar keltirilgan va tillar izohlari ustunlarga bo'linganligini ko'rishingiz mumkin.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi bilan til siyosatida jiddiy o'zgarishlar yuz berib, o'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifalari doirasining mislsiz kengayishiga katta imkoniyatlarni yaratib berdi. Ayniqsa, o'zbek tilining ilmiy til, rasmiy uslub tili, pochta, telegraf, bank-moliya sohalari tili, ijtimoiy-siyosiy va diplomatik sohalari tili sifatidagi kommunikativ vazifasi keng rivoj topdi. Respublikamiz hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan ulkan yangiliklar, rivojlangan juda ko'plab mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarning kuchayib borishi qisqa vaqt ichida o'zbek tili, xususan, uning leksikasi tarkibining boyishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Atamashunoslik qo'mitasining (1989-2004) sa'y-harakatlari bilan respublikada terminologik tadqiqotlar olib borish va terminologik lug'atlar tuzish ishi anchagina rivojlandi, bevosita mazkur atamashunoslik qo'mitasi tomonidan nashr etilgan 30 dan ortiq yoki atamashunoslik qo'mitasining turli bo'limlarida muhokama qilinib tasdiqlangan va nashr etilgan har xil hajmli terminologik lug'atlarning yaratilishida ba'zan ilmiy hamkorlikka to'liq rioya qilinmaganligi bois ularda ozmi-ko'pmi nomuvofiq (dublet, polisemantik, noaniq) terminlarni uchratish mumkin. Bunday holatni falsafa, huquqshunoslik, pedagogika, biologiya va boshqa bir qancha fan sohalari bo'yicha tuzilgan terminologik lug'atlarda ham kuzatish mumkin.

O'zbek tili dunyo tillari tizimida uch lahjadan kuch olib rivojlanadigan til sifatida boy ifoda imkoniyatlariga ega. Tabiiyki, mazkur lahja va shevalardagi so'zlarni to'plash, ularni yig'ish etimologik lug'atlar uchun muhim manba hisoblangan hamda bu turdagi lug'atlarning mukammallashuviga yordam beradi. Shu ma'noda zahmatkash tilshunos olim o'zbek tibbiyot terminologiyasiga katta hissa qo'shgan Azimjon Qosimov muallifligi ostidagi to'rt jildidan iborat "Tibbiy terminlar izohli lug'ati"ni aytib o'tishimiz mumkin. Lug'atning birinchi jildida [Қосимов А.2003] faqat o'zbek tilidagi tub, yasama, qo'shma holdagi ya'ni bir leksemali va o'zbekcha lug'aviy birliklardan yasalgan birikma terminlari joy olgan, mazkur lug'atning ikkinchi jildida [Қосимов А. 2003.] o'zbek tiliga Yevropa tillaridan rus tili orqali o'zgarishsiz kirib kelgan terminlar o'z aksini topgan, ushbu ilmiy asarning uchinchi jildida [Қосимов А.2008.] ona tilimiz affikslari yordamida o'zbekchalashtirilgan ruscha-baynalminal leksemalar va ular ishtirokida yasalgan o'zbekcha birikma terminlaridan iborat, to'rtinchi jildida [Қосимов А.2008.] birinchi jild kabi faqat o'zbekcha terminlarni qamrab olgan. Mazkur lug'at o'zining maqsadi, izohlash uslubi, tuzilishi va boshqa jihatlari bilan boshqa lug'atlardan ajralib turadi. Unda 5 mingga yaqin o'zbek tilidagi terminlari jamlangan.

Usmanxodjaev A.N., Basitxonova I.E., Nazirov P.X., M.S Turaxanovalar muallifligi va professor F.G'.Nazirov tahriri ostidagi ikki jildan iborat "Tibbiy terminlar entsiklopedik lug'ati" [Усманходжаев А.Н., Баситхонова И.Э., Назиров П.Х., Тураханова М.С., 2010] ishlab chiqilgan, ushbu lug'at tibbiyot xodimlari e'tiboriga tavsiya etilgan bo'lib, "Tibbiy terminlar entsiklopedik lug'ati" keyingi yillarda tibbiyot xodimlari, olimlar, ziyolilar, tibbiyot institutlari o'qituvchilari, talabalar va tarjimonlar orasidagi bunday lug'atga bo'lgan katta ehtiyojni qondirishga qaratilgan. Tibbiyotda qo'llaniladigan terminlar, iboralar, ish yuritish uchun zarur materiallar bilan ta'minlashni taqozo qilmoqda. Bunday kirill va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi izohli lug'at tibbiyot sohasiga aloqador, uning muassasalariga murojaat qiladigan har bir shaxs uchun ham zarurdir. Lug'atni tuzishda o'quvchilar, talablarning mumkin qadar to'laroq qondirish maqsadida, faqat rus va baynalmilal tilda qabul qilingan tibbiy terminlarning o'zbekcha muqobilini berish bilan chegaralanib qolmay, shu terminlarning kirill va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi izohi ham berilgan. Hozirga qadar lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida tibbiyot sohasida hech qanday mukammal lug'at yaratilmagan.

O'tganyillar mobaynida tibbiyot fani va amaliyotida katta o'zgarishlar, sog'liqni saqlash sohasida islohotlar yuz bermoqda. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish va profilaktika tadbirlarini olib borishda yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Natijada minglab yangi terminlar yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin. "Tibbiy terminlar entsiklopedik lug'ati"da barcha tibbiy terminlarga izohlar kirill va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida berilgan. Oldingi tibbiyot lug'atlarida tibbiyot psixologiyasi va hamshiralik ishiga doir terminlar yo'q edi. Mazkur lug'atda, nafaqat ularga oid terminlar, balki, ularning izohi ham kirill, ham lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida berilgan va o'rta maktabni lotin alifbosida bitirib, tibbiyot institutlari va kollejlari kirgan talabalarga tibbiy terminlarning mohiyatini bilishga juda katta yordam beradi. Shu nuqtai nazardan ham, mazkur lug'at davlat tilini o'zlashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Lug'at turli mutaxassislikdagi vrachlar, ayniqsa, bemorlar bilan birinchi muomalada bo'ladigan oilaviy poliklinikalarda, qishloq vrachlik punktlarida xizmat qiladigan umumiy amaliyot vrachlariga, talabalarga, magistr'larga va keng kitobxonlarga mo'ljallangan. Israilova M.N. "Lotin tili va tibbiy farmatsevtik terminologiya asoslari" [Исраилова М.Н. 2016.] o'quv qo'llanmasi tibbiyot oliygoxi talabalar uchun yozilgan. Qo'llanma o'z ichiga uchta-anatomiya, klinika va farmatsevtika yo'nalishlarini o'z ichiga oladi

va mutaxassislik fanlarini o'qitishda yaqindan yordam beradi. Mazkur qo'llanmada tibbiyotning stomatologiya bosqichidagi birinchi kurs talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, barcha grammatik mavzular keng yoritilgan va talabalarni lotin tilidagi tibbiy matnlarni o'qish, anatomik terminlarni tarjima qilish, tushunish, terminlarni grammatik va orfografik jihatdan to'g'ri yozishga qaratilgan.

Tibbiyot sohasidagi tahlil etilgan va o'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, stomatologiya terminologiyasi ingliz va o'zbek tillaridagi qiyosiy tahlili hali amalga oshirilmagan va alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Bugungi zamonaviy tarjimashunoslik sohasida ayni o'rganishi dolzarb masalalardan biri sifatida qaraymiz va uning bugungi kun talabiga xos va mos lug'atini ham tuzish ayni muddaodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1973.
2. Israilova M.N. "Lotin tili va tibbiy farmatsevtik terminologiya asoslari". Toshkent, 2016.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent, 2007.
4. Plotskaya Yu.V. Strukturno-semanticheskiy osobennosti nemetskom stomatologesckoy terminologii. Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata filologicheskix nauk. Omsk, 2020.
5. Qosimov A. "Tibbiy terminlar izohli lug'ati". Toshkent, 2003.
6. Qosimov A. "Tibbiy terminlar izohli lug'ati". Toshkent, 2003.
7. Qosimov A. "Tibbiy terminlar izohli lug'ati". Toshkent, 2008.
8. Qosimov A. "Tibbiy terminlar izohli lug'ati". Toshkent, 2008.
9. Rusakova M.M. Leksiko-semanticheskiy polya terminosistemi "Stomatologiya/ Dentistry" v sravnitelno-sopostavitelnom aspekte (na materialii professionalnix meditsinskix diskursov russkogo i angleyskogo yazikov). Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata filologicheskix nauk. Chelyabnsk, 2017.
10. Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. Toshkent, 1996.
11. Usmanxodjaev A.N., Basitxonova I.E., Nazirov P.X., Turaxanova M.S., "Tibbiy terminlar entsiklopedik lug'ati". Toshkent, 2020.

UO'K 881.111

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING CHET TILIDA YOZUV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING LINGVODIDAKTIK OMILLARI A.Toshmatov, o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotasiya. Maqolada bo'lajak chet til o'qituvchilarining ingliz tilida yozma nutq kompetensiyasini takomillashtirishda umumiy o'rta ta'lim maktabalari o'quvchilarining ona tilidagi yozma nutqining rivojlangan bo'lishi psixolingvistik jihatdan muhimligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: yozuv va yozish tushunchalarining farqi, chet til va ona tili fanlari, yozma nutq, yozuv ko'nikmasi, yozish texnikasi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются психолингвистические вопросы развития письменной речи на родном языке учащихся общеобразовательных школ в совершенствовании письменной речевой компетенции будущих учителей английского языка.

Ключевые слова: различие понятий письмо и писать, предметы иностранного и родного языка, письменная речь, навыки письма, приемы письма.

Abstract. This article discusses psycholinguistic issues of the development of written speech in the mother tongue of students of general secondary schools in improving the written speech competence of future English language teachers.

Key words: the difference between the concepts of writing and writing, foreign and native language subjects, written speech, writing skills, writing techniques.

Jahonda ingliz tilini o'rganish turli soha mutaxassislarining xorijlik hamkasblari bilan fikr almashuvlari, xalqaro anjumanlar va xorijiy manbalardan o'z sohalariga doir axborot olish kabi jarayonlarda chet tilda yozma nutqni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Ma'lumki, dunyoning Scopus, Web of Science Direct, ELSEVIER kabi aksariyat ilmiy nashrlari ingliz tilida yoziladi yoki tarjima qilinadi. Shu bilan birga hozirgi raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda barcha sohalar mutaxassislaridan ingliz tilida o'z g'oyalari va egallagan bilimlarini xalqaro auditoriyalarda yozma nutq orqali ifodalashni ham talab etadi. Ana shu jihatdan oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ingliz tilini o'rgatish jarayonida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Yozuv ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar o'quvchilar uchun qiziqarli, diqqatni tortuvchi va ilhomlantiruvchi bo'lishi kerak. Bolalar faol o'quvchilar va mutafakkirlardir. Tillarning o'zlashtirilishida o'zaro muloqotning ahamiyati L.S.Vigotskiyning asarlarida batafsil bayon qilingan. Psixolingvist olim tavsiya etgan nazariyaning eng asosiy g'oyasi shundan iboratki, o'zaro muloqot til o'rganishni osonlashtirish bilan birga o'zaro muloqot orqali o'quvchilarning tillarni o'rganishlarida kattalar yoki tengdoshlari ham asosiy undovchi kuch

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

**№11/4 (95)
2022 й., ноябрь**

Ўзбекча матн муҳаррири:	Рўзметов Дилшод
Русча матн муҳаррири:	Ҳасанов Шодлик
Инглизча матн муҳаррири:	Мадаминов Руслан, Ламерс Жон
Мусахҳиҳ:	Ўрозбоев Абдулла
Техник муҳаррир:	Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувоҳнома № 13-023

Теришга берилди: 07.11.2022
Босишга рухсат этилди: 14.11.2022.
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.
Ҳажми 13,25 б.т. Буюртма: № 11-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими
220900, Хива, Марказ-1
Тел/факс: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18